



Qurilish sohasidagi leksik birliklarni bir tildan boshqasiga tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bular orasida quyidagi muammolarni ajratib ko’rsatish mumkin.

Ekvivalentlik: Ingliz va o’zbek tillaridagi qurilish atamalarining ekvivalentligini topish ba’zan qiyin, chunki ba’zi atamalar o’zbek tilida mavjud bo’lmashligi mumkin.

Kontekstual tarjima: Qurilish leksikasi ko’pincha maxsus kontekstga bog’liq bo’lib, bunday atamalarni so’zma-so’z tarjima qilish o’rinli bo’lmashligi mumkin. Masalan, “foundation” atamasi ingliz tilida “asos” yoki “poydevor” tarzida tarjima qilinishi mumkin.

Madaniy tafovutlar: Qurilish madaniyati va an’analari o’rtasidagi farqlar atamalarning noaniq yoki noto’g’ri tarjima qilinishiga olib kelishi mumkin.

Qurilish sohasiga oid leksik birliklarning lingvistik tavsifi, ularning semantik va funksional jihatlari tilda yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy va ilmiy o’zgarishlarni aks ettiradi. Qurilish terminologiyasi murakkab va ko’p qirrali bo’lib, o’zining tilshunoslik jihatidan chuqur o’rganilishi zarur. Shu bilan birga, tarjima muammolari, ayniqsa madaniyatlararo farqlarni hisobga olish, soha tilining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Бугрова, И. М. Профессиональная лексика в системе современного русского языка. — Москва: Наука, 2008.
2. Cabré, M. Teresa. Terminology: Theory, methods and applications. — Amsterdam: John Benjamins, 1999.
3. Ходжибаева, М. К. Русский строительный термин и его узбекские эквиваленты. — Ташкент: Фан, 2015.
4. Crystal, David. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge University Press, 2003.
5. Атаханов, А. О’zbek tilida atamalar tizimi va ularning lingvistik xususiyatlari. — Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
6. Sager, Juan C. A Practical Course in Terminology Processing. — Amsterdam: John Benjamins, 2001.
7. Jumayeva, Z. Qurilish sohasiga oid terminlarning tarjimasi va ularning lingvistik xususiyatlari. // Filologiya masalalari. — 2021, №1, 65–70-b.
8. Халилов, Н. А. Лингвистика терминов: Семиотика и перевод терминов. — Баку: Элм, 1988.
9. Saida, R., & Yusubovna, K. G. (2020). Humanization of education as the basis of pedagogical communication. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(2).
10. Qurbonova G. Y., Raxmonberdiyeva S. A. THE MAIN INNOVATION APPROACHES IN THE TEACHING FOREIGN LANGUAGES // *Мировая наука*. – 2018. – №. 10. – С. 41
11. Raxmonberdiyeva, S. (2024). BINO-INSHOOTLAR QURILISHIGA OID TERMINLARNING XUSUSIYATLARI. *Farg’ona davlat universiteti*, (4), 145-145.
12. Abdulmuhammad’s, R. S. Teaching Through Integration Method in Primary Education. *International Journal on Integrated Education*, 4(8), 31-32.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA QURILISHI SOHASIGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMALARI

S.A.Raxmonberdiyeva

Namangan davlat texnika universiteti katta o’qituvchi
rahmonberdiyevasaida1991@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid frazeologik birliklarning semantik, metaforik va funksional xususiyatlari tadqiq qilinadi. Ushbu birliklarning qurilish sohasidan tashqari, ijtimoiy, madaniy va psixologik kontekstlarda qanday qo’llanishi ochib beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning tarjima muammolari va ularning ikki tildagi ekvivalentlari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: frazeologik birlik, qurilish, metafora, semantika, o’zaro tarjima, madaniy tafakkur

ПЕРЕВОДЫ СТРОИТЕЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НА АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ



Рахмонбердиева Саида Абдумухамедовна
старший преподаватель (PhD),
Наманганского государственного технического университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются семантические, метафорические и функциональные свойства фразеологических единиц, связанных со строительством, в английском и узбекском языках. Выявляется, как эти единицы используются в социальном, культурном и психологическом контексте, помимо строительной сферы. Также анализируются проблемы перевода фразеологизмов и их эквивалентов в двух языках.

Ключевые слова: фразеологическая единица, конструкция, метафора, семантика, взаимоперевод, культурное мышление

TRANSLATIONS OF CONSTRUCTION PHRASEOLOGICAL UNITS INTO ENGLISH AND UZBEK

Saida Abdulmukhamatovna Rakhmonberdiyeva
Senior teacher (PhD),
Namangan State Technical University

Abstract: This article examines the semantic, metaphorical and functional properties of phraseological units related to the field of construction in English and Uzbek. It reveals how these units are used in social, cultural and psychological contexts, in addition to the field of construction. It also analyzes the translation problems of phraseologisms and their equivalents in two languages.

Keywords: phraseological unit, construction, metaphor, semantics, mutual translation, cultural thinking

Har bir tilda frazeologik birliklar o‘ziga xos milliy tafakkurni, madaniy an‘analarni va kasb-hunar bilan bog‘liq ijtimoiy tajribani aks ettiradi. Qurilish sohasi ham bundan mustasno emas. Bu sohada qo‘llaniladigan frazeologik birliklar nafaqat texnik yoki mehnat faoliyatini ifodalaydi, balki ularni ramziy ma‘no bilan boyitadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ushbu birliklar orasida semantik, metaforik va stilistik o‘xshashliklar hamda farqlar mavjud.

Qurilishga oid frazeologizmlar ko‘pincha quyidagi asosiy ma‘no guruhlariga bo‘linadi: - *Boshlanish va asos solish: lay the foundation (asos solmoq), poydevorini qo‘yish - Barpo etish va rivojlantirish: brick by brick (g‘ishtma-g‘isht), devor ko‘tarilmoqda - buzish va qayta qurish: tear down, tag-tugi bilan buzmoq* kabilardir.

Frazeologik birliklar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilish faoliyatidan tashqariga ham ko‘chib o‘tadi: - *build bridges – munosabatlarni mustahkamlash, ko‘prik qurmoq – ijtimoiy yaqinlikni anglatadi, a shaky foundation – beqaror asos - sust poydevor – muqobil ifoda* kabilardir.

Qurilish iborolari orqali jamiyatning mehnatga, ishonchlilikka, tartibga bo‘lgan munosabati ifodalanadi. Ingliz tilida ko‘proq metaforik kengayishlar (masalan, *constructive criticism, building a career*) mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida konkretlik va hayotiylik ustun turadi (masalan, *devor ortida gap-so‘z, mo‘jaz uydek tartib*).

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda bevosita (kalka) tarjima har doim ham to‘g‘ri chiqmaydi: - *build castles in the air – havoda saroy qurmoq, o‘zbekchada bo‘sh xayol surmoq, - home stretch – oxirgi bosqich, o‘zbekchada so‘nggi g‘ishtni qo‘yish*. Tarjimada semantik moslik, kontekstga mos kelish va milliy tafakkurga yaqinlik eng muhim mezonlardandir.

Ingliz tilida: *Brick by brick - Piece by piece* frazeologimi ingliz tilida “biror narsani asta-sekin, bosqichma-bosqich qurish yoki yaratish degan ma‘noni anglatadi. Lug‘aviy jihatdan bu birikma qurilish jarayoniga ishora qiladi, chunki binolar g‘ishtma-g‘isht (ya‘ni bosqichma-bosqich) quriladi. Bu frazeologizm nafaqat qurilish jarayonida, balki turli xil ko‘chma ma‘nolarda ham ishlatiladi.

O‘zbek tilida: *G‘ishtma-g‘isht-bosqichma-bosqich*. Bu frazeologizm jarayonni tez emas balki, sekin va izchil amalga oshirishini ta‘kidlaydi. Qurilish bilan bog‘liq holatda esa poydevor mustahkam bo‘lsa, natija ham barqaror bo‘ladi degan ma‘noda ham tushunish mumkin.

Ingliz tilida: *Raise the roof-make a lot of noise* bu frazeologik iborani so‘zma-so‘z tarjimasi tomni ko‘tarish ma‘nosini anglatadi. *Tom* qurilishga oid leksik birlik hisoblanib, asosan binoning ustki qismini



qurish jarayonini bildiradi. Biroq bu frazeologizm ko‘chma ma’noda o‘zbek tilida katta shovqin yoki bayramni, xursandchilikni yoki katta muvaffaqiyatni nishonlashni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Frazeologik antonimiya – til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo‘lib, frazeologik birliklarda ham so‘zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan frazeologik birliklarning lug‘aviy ma’nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiya bir iboraning ma’nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Barcha leksik komponentlari boshqa boshqa so‘zlar bilan ifodalangan frazeologik birliklar orasidagi antonimiyani belgilash oson: masalan, ingliz tilida *build from scratch* (boshidan qurmoq)- *Tear down* (buzib tashlamoq) o‘zbek tilida *esa bino tiklamoq –bino qulatmoq* kabi ma’nolarni ifodalab, bu frazeologizmlar semantik jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lib, har ikkala tilda ham qurilish va vayron qilish tushunchalarni ifodalaydi. Ingliz tilida *from scratch* iborasi yangi boshlash ma’nosini kuchaytirs, o‘zbek tilida *qurishni tiklamoq, qulatmoq* esa yo‘q qilishni anglatadi. *Stand firm* (mustahkam turmoq), *Fall apart* (parchalanib ketmoq) o‘zbek tilidagi muqobili *temirdek mustahkam-qamishdek egiluvchan* degan ma’nolarni ifodalaydi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid frazeologik birliklar til va tafakkur birligining yorqin ko‘rinishidir. Ular nafaqat texnik faoliyatni, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayonlarini ham ifodalaydi. Frazeologik birliklarning o‘xshashlik va farqlarini taqqoslab o‘rganish tarjima amaliyoti va soha lingvistikasi uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаева, М. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Тошкент: Фан нашриёти. (2021).
2. Cowie, A.P., Mackin, R., & McCaig, I.R. Oxford Dictionary of English Idioms. Oxford: Oxford University Press. (1993).
3. G‘anieva, N. Qurilish terminologiyasi va ularning tarjima muammolari. Filologiya masalalari, 3(2), (2019). 45–49.
4. Larson, M. L. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence (2nd ed.). Lanham: University Press of America. (1998).
5. Mirzaeva, D. Frazeologik birliklarning tarjimada qo‘llanishi. Til va adabiyot ta’limi, (4), (2020). 85–88.
6. Yuldoshev, A. Qurilish sohasida qo‘llaniladigan idiomatik birliklarning tarjimasi. Ilm va taraqqiyot, 1(1), (2022). 112–117.
7. Rahmonberdiyeva, S. (2024). BINO-INSHOOTLAR QURILISHIGA OID TERMINLARNING XUSUSIYATLARI. Farg‘ona davlat universiteti, (4), 145-145.
8. Abdulmuhammad’s, R. S. Teaching Through Integration Method in Primary Education. International Journal on Integrated Education, 4(8), 31-32.
9. Raxmonberdiyeva, S., & Qurbonova, G. (2018). THEORETICAL APPROACHES TO THE PROBLEM OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. Теория и практика современной науки, (1 (31)), 48-49.
10. Qurbonova, G. Y., & Raxmonberdiyeva, S. A. (2018). THE MAIN INNOVATION APPROACHES IN THE TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Мировая наука, (10 (19)), 41-43.

COMPARING TRADITIONAL TEACHING METHODS WITH MODERN APPROACHES IN THE CLASSROOM

Karimova Charos Xurshid qizi

Chirchik State Pedagogical University, Tourism Faculty,

e-mail: charoskarimova83@gmail.com

Teacher: Rozikova Zilola Tursunboy qizi

A teacher at Chirchik State Pedagogical University,

Tourism Faculty,

e-mail: rozikova1625@gmail.com

Abstract. This article examines the major distinctions between traditional teaching methods and modern approaches in the classroom. Traditional methods have long been associated with teacher-centered learning, memorization, and examinations, while modern approaches prioritize student-centered instruction, technology integration, and active learning. The article argues that although traditional methods